



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

5. Хакимов З., Уринов У., Саидова М., Нарманов О., Эрназаров Д., Ходжаева З., ... и Очилов Ю. (2025). Биоразнообразие насекомых в Узбекистане: от обширных степей до берегов Каспия – краеугольный камень евразийских экосистем. *Каспийский журнал экологических наук*, 23 (4), 1101-1105.
6. Ниязов Х., Эрназаров Д., Аvezимбетов С., Реджепбаев Дж. С. и Шакилов У. (2025). Различные методы лечения искусственного гнойно-некротического процесса у кроликов. В BIO Web of Conferences (том 181, стр. 01007). ЭДП наук.
7. Ernazarov, D. A. (2024, October). The Effect of 10% Blood Herb (Chistotel)(Chelidonii Herba) Ointment and 10% Aloe Extract Ointment on the Inflammation Process. In International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY) (Vol. 5, pp. 69-73).
- 8.

ALPHA SHAKTI PREPARATINING QUYONLAR ORGANIZMIGA TOKSIK TA'SIRINI O'RGANISH

Kamalova A.I., Bekniyazova M.J. Zaripbaeva G.N.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Hozirgi kunda tibbiyot va veterinariya sohasida yangi biologik faol moddalarning ishlab chiqilishi va ularning xavfsizligini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday yangi dori vositasi klinik qo'llanilishidan avval laboratoriya hayvonlarida toksikologik jihatdan sinovdan o'tkazilishi lozim.

Bu jarayonda dori vositalarining toksikologik xususiyatlarini baholash, ya'ni organizmga salbiy ta'sir darajasini aniqlash alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, Alpha-shakti preparatning laboratoriya hayvonlari — xususan, quyonlar organizmiga bo'lgan ta'sirini eksperimental sharoitda o'rganish ilmiy jihatdan dolzarb masaladir.

Alpha-shakti 10 % EC konsentrat emulsiyasi (100 gr/l, yuqori-sis-aralashgan sipermetrin (RS)-siano-3-fenoksi-benzil (JRS)-sis, trans-3-(2.2-dixlorvinil)-2.2-dimetilsiklopropan-karboksilatlaridan tashkil topgan, qizg'ish tusli insektoakaritsid preparat bo'lib konsentrat emulsiya ko'rinishida Hindiston davlati (Mumbay) da ishlab chiqariladi. U suv bilan aralashganda oq rangga kiradi.

Alpha-shakti preparatining quyonlar organizmiga bo'lgan ta'sirini eksperimental sharoitda o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar preparatning organizmga bo'lgan umumiy va mahalliy ta'sirini, xavfsizlik chegarasini, hamda potentsial nojo'ya ta'sirlarini aniqlashga yordam beradi [1,2,3,4].

Tadqiqot maqsadi. Mazkur ishning asosiy maqsadi — Alpha Shakti preparatining eksperimental quyonlar organizmiga toksik ta'sirini aniqlash, xavfsizlik darajasini baholash, shuningdek, organizmning klinik, fiziologik va laborator ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar orqali preparatning potentsial nojo'ya ta'sirlarini tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va usullar. Eksperimental tajriba davomida sog'lom, bir xil yoshdagi va og'irlikdagi quyonlar tanlab olindi. Ularga preparatning past, o'rta va yuqori dozalarini peroral yo'l bilan yuborish orqali kuzatuvlar olib borildi. Har bir guruhdagi hayvonlarning umumiy holati, harakat faolligi, oziq iste'moli, tana harorati, yurak urish chastotasi, hamda qon va siydik tahlillari muntazam nazorat qilindi.

Tadqiqot ishlari uchun laboratoriya sharoitida boqilayotgan 6-8 haftalik quyonlar tanlab olinib tasodifiy tarzda quyidagi guruhlariga ajratildi:

Nazorat guruhi – dori vositasi berilmagan;

Tajriba guruhi – Alpha Shakti preparati kuniga bir marta 7 kun davomida quyidagi dozada yuborildi:

terapevtik doza (1x);

3 baravar oshirilgan doza (3x);

5 baravar oshirilgan doza (5x).

Preparat peroral (og'iz orqali) usulda berildi. Eksperiment davomida quyonlarning umumiy holati, xatti-harakati, oziqlanishi, tana harorati, qonning umumiy analizi va biokimyoviy ko'rsatkichlari (ALT, AST, kreatinin, mochevina) muntazam kuzatilib bordi. Tadqiqot oxirida hayvonlar evtanaziya qilinib, patologik-anatomiya tahlili o'tkazildi.

Ilmiy tadqiqot natijalari va tahlili. Olingan natijalarga ko'ra, Alpha Shakti preparati terapevtik dozada qo'llanganda quyonlarning umumiy holatida salbiy o'zgarishlar aniqlanmadi. Ularning xulq-atvori, ishtahasi va fiziologik ko'rsatkichlari me'yorda bo'ldi. 3x doza berilgan quyonlarda ayrim hollarda faollikning pasayishi, ozgina ishtaha yo'qolishi va tana haroratining biroz o'zgarishi qayd etildi. 5x doza olgan hayvonlarda esa qon biokimyosi tahlillarida jigar va buyrak faoliyatini ko'rsatuvchi ayrim fermentlar (ALT, AST, kreatinin) darajasining me'yordan oshganligi kuzatildi.

Postmortem (tajriba so'ngida) o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida 5x doza olgan guruhdagi quyonlarda jigarda yengil darajadagi yog'li degeneratsiya, ba'zi hollarda buyrakda shishish holatlari aniqlandi. Nazorat va terapevtik doza guruhlarida esa bunday o'zgarishlar qayd etilmadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Alpha Shakti preparati terapevtik dozalarda quyonlar uchun nisbatan xavfsiz hisoblanadi. Ammo dozani 3-5 baravar oshirish organizmda biokimyoviy va morfologik darajadagi ayrim o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, preparatni amaliyotda qo'llashda doza me'yorlariga qat'iy amal qilish zarur. Alpha Shakti preparati nisbatan xavfsiz modda sifatida tavsiflanadi, ammo yuqori dozalarda uzoq muddatli qo'llanilganda toksik ta'siri mavjud. Tadqiqot natijalari preparatning farmakologik xavfsizligini baholash va keyingi klinik sinovlarga tayyorgarlik ko'rishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy tavsiyalar. Alpha Shakti preparatini faqat veterinar mutaxassis ko'rsatmasiga binoan qo'llash tavsiya etiladi;

Doza oshirib yuborilmasligi lozim, ayniqsa yosh hayvonlar uchun;

Preparatning uzoq muddatli ta'siri bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, A. Sh., va Xodjiev, M. N. (2021). Farmakologiya asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Saidova, D. M. (2020). Eksperimental toksikologiya: usullar va natijalarni baholash mezonlari. Toshkent tibbiyot akademiyasi nashriyoti.
3. Мавланов, С., Камалова, А., Пулотов, Ф., & Исмоилов, А. (2024). Исследование остатка «АЛЬФА-ШАКТИ» 10% ЭК в коровьем молоке. *in Library*, 2(2), 201-205.
4. Mirzayeva, Z. U., & Abdurahmonov, O. R. (2022). "Hayvonlarda farmakologik sinovlarni o'tkazish metodikasi." O'zbekiston tibbiyot jurnali, 4(2), 56–63.
5. Safarov, A., Akramova, F., Azimov, D., Mihalca, A. D., & Ionică, A. M. (2021). Updates on the distribution and host spectrum of *Dirofilaria repens* in the Republic of Uzbekistan. *Parasitology Research*, 120(12), 3987-3992.
6. Сафаров, А. А., Акрамова, Ф. Д., Шакарбаев, У. А., & Азимов, Д. А. (2018). Паразитофауна домашней собаки (*Canis familiaris* Dom.) современного мегаполиса Ташкента. Российский паразитологический журнал, 12(4), 41-49.

7. Safarov, A. A., Akramova, F. D., Shakarbaev, U. A., & Azimov, D. A. (2018). Parasitic fauna of domestic dog (*Canis familiaris* Dom.) of the modern metropolis of Tashkent.
8. To'rayevich, N. B., Safarov, A. A. U., Akramova, F. D., Azimov, D. A., Shakarbayev, U. A., & Berdibayev, A. S. (2020). The cycle of nematode *Dirofilaria Immitis* (Leidy, 1856) in the ecological and epizootological chains of canines in the biocoenoses of Uzbekistan. *American Journal of Zoology*, 3(1), 5-9.
9. Safarov, A., Kunisov, B., Arepbaev, I., & Sazmand, A. (2024). First record of nasopharyngeal myiasis caused by *Cephalopina titillator* (Clark, 1816) in camel (*Camelus dromedarius* Linnaeus, 1758) in Uzbekistan. *Veterinary Parasitology: Regional Studies and Reports*, 51, 101029.
10. Mechouk, N., Safarov, A., Kunisov, B., Sazmand, A., & Deak, G. (2025). A six-legged anomalous *Dermacentor niveus* (Acari: Ixodidae) female tick from a camel (*Camelus dromedarius*) in Uzbekistan. *Persian Journal of Acarology*, 14(2), 357-360.

NUKUS SHAHRIDA BROYLER ZOTLI PARRANDALARNING KOLIBAKTERIOZ KASALLIGINING EPIZOOTOLOGIYASI VA OLDINI OLIISH CHORA-TADBIRLARI

Kamalova A.I., Yelubaeva R.O.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi, shu jumladan Nukus shahrida parrandachilik tarmog'i jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, broyler zotli tovuqlarni yetishtirish yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lib, qisqa vaqt ichida katta hajmda go'sht mahsulotlarini olish imkonini beradi. Biroq, parrandachilik tarmog'ining intensivlashtirilishi, zich joylashtirilgan jo'jalar soni, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinmasligi natijasida yuqumli kasalliklarning, jumladan kolibakteriozning tarqalish xavfi ortmoqda.

Kolibakterioz (yoki koliseptikemiya) - *Escherichia coli* (*E. coli*) bakteriyasi sababli yuzaga keladigan, ayniqsa yosh parrandalar o'rtasida yuqori o'lim holatiga olib keluvchi yuqumli kasallik bo'lib, asosan ichak, nafas yo'llari, jigar, yurak va boshqa ichki a'zolariga ta'sir etadi.

Tadqiqotning maqsadi. Nukus shahridagi broyler boqiladigan xo'jaliklarida kolibakterioz kasalligining epizootologik holatini o'rganish, kasallikni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash, tashxislash usullarini tahlil qilish hamda profilaktika va davolash bo'yicha samarali choralarni ishlab chiqishdan iborat.

Kolibakteriozning etiologiyasi. Kasallikning qo'zg'atuvchisi — *Escherichia coli* turkumiga mansub gram-manfiy tayoqchasimon bakteriya bo'lib, parrandalarning me'da-ichak traktida tabiiy mikroflora sifatida mavjud. Biroq muhit omillarining o'zgarishi, immunitetning pasayishi yoki gigiyena talablariga amal qilinmasligi natijasida u patogen shaklga o'tib, kasallik chaqiradi.

Infeksiya manbalari bo'lib, kasallangan yoki tashuvchiligi bo'lgan parrandalar, notoza suv, ozuqa, tozalanmagan inshootlar hamda parranda parvarishi bilan shug'ullanuvchi xodimlari hisoblanadi.

Kasallikning kechishi va simptomlari. Kolibakteriozning kechishi parranda yoshiga, immunitet holatiga va tashqi omillarga bog'liq holda o'zgaradi. Asosan quyidagi holatlar kuzatiladi:

Letargiya (lohaslik), ishtahaning yo'qolishi, diareya (ko'p hollarda suvli va yashil rangda), nafas olishi qiyinlashuvi, ko'krak va qorin sohasida shish, tana haroratining oshishi, yosh jo'jalarda to'satdan o'lim kabi holatlar kuzatiladi.